

O`ZBEK TILI SEMASIOLOGIYASI: MA`NO TIZIMI VA UNING RIVOJLANISH QONUNIYATLARI

*Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
Filologiya va tillarni o`qitish
(o`zbek tili) yo`nalishi 2- kurs talabasi
Abdullayeva Dildora Bahrom qizi
dildor.abdullayeva0812@gmail.com
+998930081208*

Annotatsiya: Mazkur maqolada o`zbek tili semasiologiyasining asosiy nazariy jihatlari, so`z ma`nosining tarkibi va ularning rivojlanish qonuniyatlari tahlil qilinadi. So`z ma`nolarining kengayishi, torayishi va ko`chishi kabi jarayonlar ilmiy nuqtayi nazardan o`rganilib, ularning o`zaro munosabatlari (sinonimiya, antonimiya, omonimiya, polisemiya) misollar asosida yoritiladi. Maqolada o`zbek tilidagi semasiologik hodisalar qiyosiy tahlil qilinib, ushbu sohaning dolzarbligi va kelajak tadqiqotlari uchun istiqbolli yo`nalishlar belgilab beriladi.

**Kalit so`zlar:** Semasiologiya, so`z ma`nosi, sinonimiya, antonimiya, omonimiya, polisemiya, metafora, metonimiya, ma`no o`zgarishi, o`zbek tili.

Kirish

Til inson tafakkuri va jamiyat taraqqiyotining eng muhim vositalaridan biridir. Tilshunoslik fanida so`z va uning ma`nosi alohida o`rganiladigan yo`nalish bo`lib, *semasiologiya* ushbu muhim masalalarni tadqiq etadi. Semasiologiya – leksikologiyaning so`z ma`nosi bilan bog`liq jihatlarni o`rganadigan bo`limi bo`lib, so`z va boshqa til birliklarining ma`nosini, ularning o`zgarish jarayonlarini va ma`no aloqalarini ilmiy asosda tahlil qiladi. Har bir til tizimli hodisa sifatida o`ziga xos semantik qonuniyatlarga ega bo`lib, so`zlarning ma`no jihatidan o`zgarishi, kengayishi, torayishi va boshqa semantik munosabatlar bu qonuniyatlar doirasida shakllanadi.

O`zbek tilining semasiologik jihatlarni o`rganish nafaqat nazariy ahamiyatga ega, balki amaliy jihatdan ham muhimdir. Chunki so`z ma`nolarining o`zgarishi ularning o`zaro munosabatlari, sinonimiya, antonimiya, omonimiya kabi hodisalar tilning rivojlanish jarayonlarini ochib berishda muhim rol o`ynaydi. Masalan, ba`zi so`zlarning ma`nosi vaqt o`tishi bilan kengayib yoki torayib boradi, ba`zilari esa metafora, metonimiya yoki boshqa semantik ko`chishlar orqali yangi ma`no kasb etadi. Ushbu jarayonlarni o`rganish nafaqat tilshunoslar, yozuvchilar va til bilan bog`liq kasb egalarining faoliyati uchun ham muhim hisoblanadi.

Hozirgi zamon tilshunosligida semasiologiya mustaqil ilmiy yo`nalish sifatida rivojlanib, so`z ma`nolari o`rtasidagi munosabatlarni tahlil qilish, ularning o`zgarish dinamikasini aniqlash va til tizimidagi o`rnini belgilash bilan shug`ullanadi. Ayniqsa, o`zbek tilida semantik o`zgarishlar, sinonimik va antonimik munosabatlar, polisemiya hodisalari juda keng ko`lamda uchraydi. Ushbu maqolada o`zbek tili semasiologiyasining nazariy asoslari, so`z ma`nolarining o`zgarish qonuniyatlari va ularning o`zaro munosabatlarini chuqur tahlil qilamiz.

Maqolaning maqsadi- o`zbek tilida so`zlarning semantik xususiyatlarini ilmiy asosda o`rganish, ma`no o`zgarishlari va ular o`rtasidagi bog`liqlikni tahlil qilish hamda semasiologiyaning amaliy ahamiyatini ko`rsatishdan iborat. Maqolada so`z ma`nolari, ularning tarkibiy tuzilishi, semantik rivojlanish jarayonlari va ular o`rtasidagi bog`liqlik haqida ilmiy- nazariy mulohazalar yuritiladi. Shu bilan birga, semasiologiyaning kelajak tadqiqotlar uchun istiqbollari ham belgilab beriladi.

Semasiologiyaning nazariy asoslari

So`z ma`nosi tushunchasi va uning tarkibiy qismlari. Tilshunoslikda so`z ma`nosi deganda, muayyan til birliklarining tushuncha yoki predmet bilan bog`lanilishi tushuniladi. Har bir so`z muayyan lug`aviy ma`noga ega bo`lib, bu ma`no uning semantik tizimidagi o`rnini belgilaydi. So`z ma`nosi turli tarkibiy qismlardan iborat bo`lib, ularning har biri til tizimidagi semantik aloqalarni aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

So`z ma`nosining tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

1. Denotativ ma`no. Denotativ (lug`aviy, asosiy) ma`no – so`zning obyektiv reallikdagi predmet yoki hodisaga nisbatan qo`llanadigan ma`nosi. Bu ma`no so`zning asosiy mazmunini tashkil etadi. Masalan, Kitob- o`qish uchun mo`ljallangan bosma nashr. Daryo- suv oqimiga ega tabiiy geografik obyekt.

2. Konnotativ ma`no. Konnotativ ma`no so`zning asosiy lug`aviy ma`nosidan tashqari, unga bog`langan hissiy, uslubiy yoki madaniy ma`nolarni o`z ichiga oladi. Masalan, Ona faqat biologik tushuncha emas, balki mehr, muhabbat, ona yurt kabi kengroq tushunchalarni ham anglatishi mumkin. Tulpor shunchaki ot emas, balki tezkor va kuchli ot ma`nosini bildiradi.

Konnotativ ma`no quyidagi turlarga bo`linadi:

- Ekspressiv ma`no- so`zning hissiy ta`sir kuchi (a`lo, zo`r, ayanchli).
- Uslubiy ma`no- so`zning nutq uslubiga bog`liqligi (rasmiy, shevaga xos, badiiy)
- Emotsional ma`no- so`zning ijobiy yoki salbiy hissiyot uyg`otish darajasi (yoqimli, jirkanch va h.k)

3. Grammatik ma`no. Grammatik ma`no so`zning gapdagi sintaktik va morfologik vazifasini bildiradi. Masalan, Olma so`zini olsak, bunda olma (meva- leksik ma`nosi),

to'rt harfdan iborat, bosh kelishikda, atash ma'nosiga ega, mustaqil so'z turkumiga mansub va boshqalarni misol qilib olishimiz mumkin.

Semasiologiyaning asosiy yo'nalishlari

Semasiologiya turli yo'nalishlarda tadqiq qilinadigan murakkab fan hisoblanadi. Uning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

1. Leksik semasiologiya – so'zlarning leksik ma'nolarini, ularning rivojlanish jarayonlarini o'rganadi.
2. Grammatik semasiologiya – so'zlarning grammatik ma'nolari va ularning turli grammatik shakllar orqali qanday ifodalanishini tahlil qiladi.
3. Onomasiologiya – ma'lum bir tushuncha yoki predmetning til tizimida qanday nomlanishini o'rganadi.
4. Semantik aloqalar tahlili – sinonimiya, antonimiya, polisemiya, hodisalarni o'rganish.
5. Semasiologiya ushbu yo'nalishlar orqali so'z ma'nolarining o'zgarishini, ularning nutqdagi va til tizimidagi o'rnini chuqur tahlil qiladi.

O'zbek tilida so'z ma'nolarining o'zgarishi

Til doimiy rivojlanish jarayinida bo'lib, so'zlar vaqt o'tishi bilan yangi ma'nolar kasb etishi yoki avvalgi ma'nolarini yo'qotishi mumkin. Ushbu o'zgarishlar semantik taraqqiyot deb ataladi. Semantik o'zgarishlar so'zning kontekstda qo'llanilishi, madaniy va ijtimoiy omillar, nutqiy ehtiyojlarning ortishi kabi sabablarga ko'ra yuzaga keladi.

Ma'no kengayishi va torayishi

- Ma'no kengayishi- so'zning dastlabki ma'nosi kengayib, yangi predmet yoki hodisalarni ifodalashga moslashishidir. Masalan, «Ona» - dastlab faqat biologik ona ma'nosida ishlatilgan bo'lsa, hozirda «Ona tilim» «Ona vatan» kabi iboralarda ham uchraydi. «Oq» – avval faqat rangni bildirgan, hozir esa, «Oq yuvib, oq taramoq», «Oq yo'l» kabi ma'nolarni ham anglatib boshlagan.
- Ma'no torayishi- aksincha, so'zning ma'nosi avvalgiga qaraganda torayib, muayyan predmet yoki hodisani ifodalashga moslashadi. Masalan, «Go'sht»- qadimda barcha ovqat turini anglatgan, hozir esa faqat hayvon go'shtini bildiradi. «Meva»- oldin barcha o'simlik mahsulotlariga (sabzavotlarga ham) nisbatan ishlatilgan, hozirda esa faqat daraxt mevalariga qo'llaniladi.

Ma'no ko'chishi (metafora, metonimiya, sinekdoxa)

a) Metafora- (o'xshashlik asosidagi ma'no ko'chishi)

Metafora- bir so'zning boshqa bir so'zga o'xshashligi sababli yangi ma'no kasb etishidir. Masalan, «Ko'z» inson ko'zi degan asosiy ma'nodan «Buloq ko'zi», «Igna ko'zi», «Uzuk ko'zi» kabi ma'nolarga o'tgan. Til inson tilidan tashqari «Temir til», «Olov tili» kabi ilovalarda ham qo'llaniladi.

b) Metonimiya- (aloqadorlik asosidagi ma`no ko`chishi)

Metonimiya- bir so`z boshqa bir so`z bilan bog`liq jihati asosida ma`no o`zgarishiga uchraydi. Masalan, «Shkaf» mebel ma`nosida ishlatiladi, ammo ba`zan ichidagi narsalarni ham anglatadi. (masalan, «Shkafdan bir kitob olib ber», ya`ni shkafni o`zini emas, ichidagi kitobni nazarda tutadi).

c) Sinekdoxa- (butun va qism o`rtasidagi ma`no ko`chishi)

Sinekdoxa- butunning qismi yoki qismning butunga nisbat berilishi orqali ma`no o`zgarishi. Masalan, «To`rt devor», aslida uy ma`nosida qo`llaniladi. «Qo`l» odam yoki ishchi kuchi ma`nosida ham ishlatiladi («Yana bir qo`l kerak», ya`ni odam kerak). Semantik differentsiallashtiruv va birikish jarayonlari

1. Semantik differentsiallashtiruv- bir so`zning ma`nosi vaqt o`tishi bilan ajralib, turli yangi ma`nolarga ega bo`lishidir. Masalan, «Yonmoq» avval faqat olovda yonish ma`nosida ishlatilgan, hozir esa «Havasdan yonmoq», «Yoqilg`I yonmoq», «Qalb yonmoq» kabi yangi ma`nolar hosil bo`lgan.
2. Semantik birikish. Bunda aksincha, avval turli so`zlar bilan ifodalangan tushunchalar bir so`z tarkibida umumlashadi. Masalan, «Bozor» avval faqat savdo joyini anglatgan bo`lsa, hozirda iqtisodiy tizimni ham ifodalashi mumkin («Bozor iqtisodiyoti»).

So`z ma`nolarining o`zaro munosabatlari. Sinonimiya, antonimiya, omonimiya va polisemiya

1. Sinonimiya- bir xil yoki juda yaqin ma`noli so`zlarning mavjudligi. Masalan, go`zal, chiroyli, latofatli.
2. Antonimiya- ma`nosi bir- biriga zid bo`lgan so`zlar. Masalan, katta- kichik, qora- oq.
3. Omonimiya- shaklan bir xil, lekin ma`nosi har xil bo`lgan so`zlar. Masalan, ko`r (ko`zi ojiz), ko`r (biror narsani ko`r).
4. Polisemiya- bir so`zning bir nechta bog`liq ma`noga ega bo`lishi. Masalan, yuz (inson yuzi), yuz (daryoning yuzi, oynaning yuzi va h.k).

O`zbek tilida so`z ma`nolarining o`zgarish tendensiyalari. O`zbek tilida semantik o`zgarishlarning quyidagi tendensiyalari kuzatiladi:

- a) Texnologik taraqqiyot natijasida yangi ma`nolarning paydo bo`lishi (1. Sichqon 2. Kompyuter sichqonchasi).
- b) Ijodiy metaforalar orqali yangi ifodalar shakllanishi(Tashvish dengizi, umid nuri)
- c) Sheva va adabiy til o`rtasidagi ta`sirlar natijasida ayrim so`zlarning umumiy lashuvi( Jiyan so`zi hozirda ukavachcha yoki amakivachcha ma`nosida ishlatiladi).

Men qiyosiy misol va tahlillarga asoslanib, yana bir ma'lumotni aytib o'tishim kerak. Ya'ni boshqa tillar bilan qiyoslaganda, o'zbek tilida metafora ko'chishlari ko'proq hissiy ma'nolarni ifodalash uchun ishlatiladi, sinonimiya va antonimiya so'z boyligining o'sishiga xizmat qiladi va polisemiya tilning ixchamligini ta'minlaydi.

Takliflar:

6. O'zbek tilida yangi ma'no o'zgarishlarini kuzatish va ularni ilmiy asosda tahlil qilish.
7. Sinonim va antonim so'zlar lug'atini mukammallashtirish.
8. Semasiologik hodisalarning tarjima va leksikografiyaga ta'sirini o'rganish.

Xulosa

O'zbek tilida so'z ma'nolarining o'zgarishi tabiiy jarayon bo'lib, bu tilning doimiy ravishda boyib borishiga xizmat qiladi. Semasiologiyaning o'rganilishi so'zlarning semantik tizimdagi o'rnini belgilash, ma'no o'zgarishlarini aniqlash va ularning kommunikativ ahamiyatini ochib berishda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Abduazizov A. A. "Tilshunoslik asoslari". - Toshkent: Fan, 2007.
2. Mahmudov N., Ro'ziyev Y. "O'zbek tili semasiologiyasi". - Toshkent: O'qituvchi, 2010.
3. Hasanov B. "Hozirgi o'zbek adabiy tili". - Toshkent: Universitet, 2012.
4. Saidov A. "Leksikologiya va leksikografiya". - Toshkent: Fan, 2008
5. O'zbek tilining izohli lug'ati - Toshkent: O'zME, 2006.